

B.Y. XODIYEV, SH.SH. SHODMONOV

IQTISODIYOT NAZARIYASI



TOSHKENT

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT
UNIVERSITETI**

7

B.Y. XODIYEV, SH.SH. SHODMONOV

IQTISODIYOT NAZARIYASI

(DARSLIK)

Копия
11

7456

TOSHKENT-2017

UO'K: 33.01(075)

KBK: 65.01ya7

Sh-74

Sh-74 B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi.
(Darslik). – T.: «Barkamol fayz media», 2017, 784 bet.

ISBN 978-9943-5142-4-9

«Iqtisodiyot nazariyasi» fani bo'yicha tayyorlangan mazkur darslik 2002-yilda chop etilgan o'quv qo'llanma va 2005, 2010-yillarda qayta chop etilgan darslikning qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri hisoblanadi. Ushbu darslikni tayyorlashda O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Ta'lim to'g'risidagi Qonuni va oliy o'quv yurtlarida bakalavrlar tayyorlash yangi davlat andozasi talablari hisobga olingan. Undagi mavzular mazmunini yoritishda Respublika birinchi Prezidenti I. Karimov asarlari, ma'ruzalari xususan, «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asaridan, mamlakatimizda qabul qilingan qonunlar va hoshya me'yoriy hujjatlardan keng foydalanilgan. Keyingi yillarda mamlakatimizda va xorijda, ayniqsa, Rossiyada nashr etilgan qator darslik va o'quv qo'llanmalarining qisqacha tahlili berilgan, ulardagi ijobiy tomonlardan foydalanilgan va ba'zi bir munozarali jihatlar esa tanqidiy ravishda o'rganilib, muallifning shaxsiy yondashuvlari bayon etilgan.

Darslik bir-biri bilan mantiqan bog'langan to'rt qismdan iborat bo'lib, ularda iqtisodiyotning umumiy asoslari, bozor iqtisodiyoti, makroiqtisodiyot va jahon xo'jaligiga oid mavzular o'rin olgan. Ayniqsa, hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyotining qonun-qoidalariga, moliya, kredit, bank va pul tizimining roli katta e'tibor berilgan.

UO'K: 33.01(075)

KBK: 65.01ya7

Darslik barcha yo'nalishdagi bakalavrlar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar: S.G'ulomov - akademik;

A. Rasulyev - professor;

O. Hamroyev - professor.

ISBN 978-9943-5142-4-9

© «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2017.

KIRISH

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.Karimovning bevosita tashabbusi va rahbarligida har tomonlama puxta o'ylab ishlab chiqilgan taraqqiyotning "O'zbek modeli"ni izchil amalga oshirish orqali iqtisodiyotimiz misli ko'rilmagan katta muvaffaqiyat va natijalarga erishdi. Jumladan, mustaqillik yillarida milliy xo'jaligimiz iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan meros bo'lib qolgan bir tomonlama xomashyo ishlab chiqarish bo'yicha rivojlanish, paxta yakkahokimligi va inqiroz holatidan chiqarildi; iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlandi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlandi, iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohaları o'rtasidagi muvozanatlik va mutanosiblik kuchaydi; bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari vujudga keltirilib, rivojlantirildi. Soliq, byudjet va tashqi iqtisodiy faoliyat sohalarida, bank tizimi faoliyatida mustahkam barqarorlik, davlat qarzini nisbatan past darajada ushlab turish ta'minlanib mamlakatimizning jahon miqyosidagi obro'-e'tiborini yuqori darajaga ko'tarishga erishilmoqda.

Iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan modernizatsiya, tarkibiy o'zgarish va diversifikatsiya natijasida yangidan-yangi zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilmoqda. Bu o'zgarishlar va xalqimizning fidokorona mehnati natijasida yaratilayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmat turlarining ko'payib, sifati tubdan yaxshilanib borishiga, aholi daromadlari va turmush darajasining keskin o'sishi, ularning ertangi kunga bo'lgan ishonchini toбора oshib borishiga olib kelmoqda. Ma'naviy jahhada ham tub o'zgarishlar qilinib, jamiyat a'zolari ongida milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi shakllantirildi.

Ayni paytda, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-yanvarda bo'lib o'tgan kengaytirilgan majlisida va boshqa majlislarda qilgan ma'ruzalaridan bizga shu narsa ma'lum bo'lib turibdiki, mamlakatimizda erishilgan ulkan yutuqlar bilan bir qatorda bugungi kunda xalqaro miqyosda va mamlakatimiz ichida o'z yechimini topmagan muammolar, hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalar ham juda ko'p ekan.

Bugungi kunda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamon davom etib turishi, dunyoning turli mintaqalarida sodir bo'layotgan qarama-qarshiliklarning kuchayib borishi, jahon bozorida vaziyatning tez o'zgarayotgani dunyoning ko'plab mamlakatlarida investitsion faollikning susayishi real iqtisodiyotda ishlab chiqarishning o'sish sur'ati pasayib borishi ro'y berib, jahon bozorida xarid talabining kamayishi davom etmoqda, ishsizlik darajasi yuqorilgicha qolmoqda, ijtimoiy keskinlik kuchaymoqda. Bundan tashqari mamlakatimizdagi ayrim sohalar, tarmoqlar va kompaniyalarda eksport hajmi kamayib, import hajmi oshib ketishi, ko'plab kapital mablag'lar sarflanishiga qaramay ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligining pasayib ketishi fan-texnika taraqqiyoti yuz berib, yangi texnika va texnologiyalarning kirib kelishiga qaramay ketgan xarajatlar va mahsulot tannarxi pasayish o'rniga aksincha, oshishi holati yuz berishi, valyuta munosabatlarining tartibga solinmaganligi, naqd pul bilan naqd pulsiz hisob-kitoblar o'rtasida farq mavjudligi kabi noxush holatlar sodir bo'lib turibdi. Bu holatlar mamlakatimiz oldida turgan keng ko'lami dasturiy maqsad va vazifalar islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish iqtisodiyotni modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash, tarkibiy o'zgartirish, xususiy mulk, xususiy tadbirkorlikni kuchaytirish, iqtisodiy rivojlanish yo'lida g'ov bo'lib turgan barcha to'siq va cheklavlarni bartaraf etish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmonida belgilangan vazifalar va muammolarni bartaraf etish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishni talab qiladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, hayotning o'zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini